



O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

PhD, dots. **Jumaniyazova Feruza**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-1838-3746
feruzalisher@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston soliq tizimining raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinishi jarayoni har tomonlama tahlil qilinadi. Raqamlashtirishning mohiyati, soliq ma'muriyati samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda davlat boshqaruvi tizimida tutgan o'ziga xos strategik ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, raqamli islohotlarning amaliy natijalari sifatida elektron hujjat almashinuvi tizimi, onlayn soliq deklaratsiyalarini topshirish platformalari, soliq to'lovchilar kabineti, axborot xavfsizligi infratuzilmasi, soliq organlari o'rtasidagi integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari kiritilishi batafsil o'rganiladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonida uchrayotgan asosiy muammolar hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutlari, internet tezligi va texnik ta'minot yetishmovchiligi, aholining va tadbirkorlarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, qonunchilikdagi bo'shliqlar hamda kiberxavfsizlik xavflari batafsil tahlil etiladi. Raqamli tizimlarni joriy etish jarayonida uchraydigan tashkiliy, iqtisodiy va texnik to'siqlar bilan birga ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Maqola natijalarida soliq tizimini modernizatsiya qilish orqali shaffoflikni oshirish, soliq ma'muriyati xarajatlarini qisqartirish, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish va soliq to'lovchilarga qulay sharoitlar yaratishning samarali mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari soliq organlari, iqtisodchi-mutaxassislar, tadbirkorlik subyektlari va raqamlashtirish siyosatini amalga oshirayotgan davlat institutlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'muriyati, elektron xizmatlar, infratuzilma, ma'lumot almashinuvi, xavfsizlik, O'zbekistonda soliq islohotlari.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА: ДОСТИЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

PhD, доц. **Джуманиязова Феруза**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется процесс модернизации налоговой системы Узбекистана на основе цифровых технологий. Раскрывается сущность цифровизации, её роль в повышении эффективности налоговой администрации, а также стратегическое значение в системе государственного управления. Кроме того, как практические результаты цифровых реформ подробно изучаются: система электронного документооборота, платформы для подачи онлайн налоговых деклараций, личный кабинет налогоплательщика, инфраструктура информационной безопасности, интегрированные базы данных между налоговыми органами и автоматизированные системы контроля. Также детально анализируются

основные проблемы, возникающие в процессе цифровизации, различия в инфраструктуре между регионами, недостаточная скорость интернета и техническое обеспечение, низкий уровень цифровой грамотности населения и предпринимателей, пробелы в законодательстве, а также риски кибербезопасности. Наряду с организационными, экономическими и техническими барьерами, возникающими при внедрении цифровых систем, разрабатываются научно обоснованные предложения по устранению данных проблем. В результате исследования освещаются эффективные механизмы повышения прозрачности, сокращения расходов налоговой администрации, уменьшения ошибок, связанных с человеческим фактором, и создания благоприятных условий для налогоплательщиков за счёт модернизации налоговой системы. Ожидается, что результаты исследования будут иметь практическое значение для налоговых органов, экономистов-специалистов, субъектов предпринимательства и государственных институтов, реализующих политику цифровизации.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация, налоговая администрация, электронные услуги, инфраструктура, обмен данными, безопасность, налоговые реформы в Узбекистане.

DIGITALIZATION OF THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES

PhD, assoc. prof. **Jumaniyazova Feruza**
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the process of modernizing Uzbekistan's tax system based on digital technologies. It reveals the essence of digitalization, its role in improving the efficiency of tax administration, as well as its specific strategic significance within the system of public governance. As practical outcomes of digital reforms, the article examines in detail the electronic document exchange system, platforms for submitting online tax declarations, the taxpayer's personal cabinet, the information security infrastructure, integrated databases among tax authorities, and automated control systems. In addition, the study thoroughly analyzes the main problems encountered during the digitalization process, including infrastructure disparities between regions, insufficient internet speed and technical support, low digital literacy among the population and entrepreneurs, gaps in legislation, and cybersecurity risks. Along with the organizational, economic, and technical barriers faced in implementing digital systems, the article develops scientifically grounded proposals for overcoming these problems. The results highlight effective mechanisms for increasing transparency, reducing tax administration costs, minimizing human-factor-related errors, and creating convenient conditions for taxpayers through the modernization of the tax system. The findings are expected to be of practical significance for tax authorities, economic experts, business entities, and state institutions implementing digitalization policy.

Keywords: tax system, digitalization, tax administration, electronic services, infrastructure, data exchange, security, tax reforms in Uzbekistan.

Kirish.

Soliq tizimi har qanday davlatning iqtisodiy siyosatida markaziy o'rin tutadi. U nafaqat davlat byudjetini shakllantirish, balki iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, moliya va soliq ma'muriyati sohalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali soliq tizimining samaradorligi, shaffofligi hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlar sifati sezilarli darajada oshmoqda. Shu bois

raqamlashtirish bugungi kunda soliq siyosati modernizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyadan chetda qolmadi. So'nggi yillarda mamlakatda davlat boshqaruvi tizimida keng ko'lamli raqamlashtirish siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiy sohalarda, shu jumladan soliq ma'muriyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Soliq qo'mitasi faoliyatida elektron hujjat aylanishi, onlayn soliq deklaratsiyalari, elektron kassa apparatlari, ma'lumot almashinuvi platformalari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari singari innovatsion yechimlar keng tatbiq etilmoqda. Bu esa soliq to'lovchilar uchun xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirib, ularning vaqt va resurslarini tejash imkonini bermoqda.

Biroq raqamlashtirish jarayoni bilan bir qatorda, uning samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan bir qator strukturaviy, tashkiliy va texnik muammolar ham mavjud. Jumladan, mamlakat hududlarida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emasligi, fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi, ma'lumot almashinuvi tizimlarining to'liq integratsiyalanmagani, shuningdek, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilikdagi bo'shliqlar muhim masalalar sifatida ko'tarilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi nafaqat texnik modernizatsiya, balki institutsional islohotlar, normativ-huquqiy yangilanishlar va inson resurslarini rivojlantirishni ham talab etuvchi ko'p qirrali jarayondir. Mazkur maqola aynan shu jarayonning holatini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini kompleks tarzda o'rganadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, soliq tizimida raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali davlatning fiskal barqarorligini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhitini yaratish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bois, soliq ma'muriyati sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash, shuningdek, kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi masalasi so'nggi yillarda ilmiy va amaliy doiralarda faol o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Jahon miqyosida soliq ma'muriyatlarini raqamli transformatsiya qilish davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar uchun qulay muhit yaratish va korrupsiyani kamaytirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda (OECD, 2021). Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyot strategiyasi doirasida soliq tizimini modernizatsiya qilishni milliy ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan soliq ma'muriyati fiskal nazoratni kuchaytirish, avtomatlashtirilgan ma'lumot tahlili orqali yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash imkonini beradi. Masalan, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasida elektron soliq deklaratsiyalari tizimi va "big data" asosida soliq nazorati natijasida budjet tushumlari oshgani kuzatilgan (World Bank, 2020). Shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlatlarida soliq to'lovchilarning onlayn identifikatsiyasi va yagona ma'lumot bazalarining integratsiyasi orqali soliq ma'muriyati va fuqarolar o'rtasidagi ishonch kuchaygani ta'kidlanadi.

O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish jarayonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, shuningdek, "Soliq ma'muriyatini rivojlantirish konsepsiyasi" (2020–2025 yillar) doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (STQ) tomonidan e-Soliq.uz, my.soliq.uz, "Soliq mobil ilovasi", onlayn kassa apparatlari va elektron hisob-faktura tizimlari joriy etilishi bu borada muhim bosqich

hisoblanadi. Mamatqulov (2022) o'z tadqiqotida ushbu tizimlar soliq to'lovchilar bilan muloqotni soddalashtirib, soliq to'lash jarayonini tezlashtirganini qayd etadi.

Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar (Qodirova, 2021; Ismoilov, 2023) raqamlashtirishning samaradorligi ko'p jihatdan axborot infratuzilmasining sifatiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, mintaqalar o'rtasida internet tezligi, texnik ta'minot va raqamli savodxonlik darajasi bo'yicha tafovutlar mavjudligi soliq tizimining to'liq raqamli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Raqamli savodxonlik masalasi ham ko'plab manbalarda alohida urg'u bilan tilga olinadi. Karimova (2022) ta'kidlashicha, raqamlashtirish texnik joriy etish bilan cheklanmasligi, balki inson kapitaliga — xodimlar va soliq to'lovchilarning raqamli ko'nikmalariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Aks holda, raqamli vositalarning samaradorligi pasayadi va ularning amaliy tatbiqi sustlashadi.

Ma'lumotlar almashinuvi va tizimlararo integratsiya bo'yicha muammolar ham ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadi. To'xtasinov (2023) fikricha, O'zbekistonda vazirlik va idoralar tomonidan mustaqil elektron tizimlarning yaratilishi ma'lumotlar takrorlanishiga, ma'lumot sifati pasayishiga va tahliliy jarayonlarning sekinlashuviga olib kelmoqda. Shu sababli, yagona davlat axborot platformasi asosida soliq, bojxona, bank va sud tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini integratsiyalash muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bu jarayonning muvaffaqiyati infratuzilma, inson resurslari, tizim integratsiyasi va kiberxavfsizlik sohalaridagi muammolarning samarali hal etilishiga bog'liqdir. Ilmiy manbalar raqamlashtirishning faqat texnik emas, balki institutsional va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar ushbu sohada kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi jarayonini tizimli tahlil qilish, uning amaliy yutuqlari va mavjud muammolarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u asosan adabiyotlar tahlili, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, **hamda** taqqoslash va tahliliy umumlashtirish usullariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalar, davlat organlari ma'lumotlari hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan foydalanildi.

Birinchidan, adabiyotlar tahlili usuli orqali soliq tizimining raqamlashtirilishi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, monografiyalar hamda konferensiya materiallari o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali raqamli soliq ma'muriyati bo'yicha xalqaro tajriba, shuningdek, O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy asoslari tahlil qilindi. Xususan, Soliq qo'mitasining rasmiy axborotlari, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi, "Soliq ma'muriyatini rivojlantirish konsepsiyasi (2020-2025)" kabi normativ-huquqiy hujjatlar asosiy ma'lumot manbasi sifatida tanlab olindi.

Ikkinchidan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili orqali soliq sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron xizmatlar va axborot tizimlarini boshqarish bilan bog'liq davlat qarorlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari o'rganildi. Bu usul yordamida raqamlashtirish siyosatining institutsional asoslari hamda huquqiy mexanizmlari aniqlab olindi.

Uchinchidan, taqqoslash va tahliliy umumlashtirish usuli yordamida O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar — xususan, Estoniya, Janubiy Koreya va Rossiya Federatsiyasi tajribalari bilan solishtirildi. Mazkur yondashuv orqali O'zbekistonning soliq tizimini raqamlashtirish borasidagi yutuqlari va kamchiliklarini xalqaro standartlar bilan qiyoslash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda, shuningdek, empirik ma'lumotlardan foydalanish elementi mavjud bo'lib, unda ochiq manbalardagi statistik ma'lumotlar, Soliq qo'mitasi rasmiy veb-saytidagi yangiliklar, matbuot xabarlari hamda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OECD, UNCTAD) hisobotlaridagi raqamli boshqaruv ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv va tahliliy qarashlar tanlandi, bu esa raqamlashtirish jarayonini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida baholash imkonini berdi. Tahlil davomida strukturaviy, institutsional va texnologik omillar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi bir vaqtning o'zida iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy jihatlar kesimida baholandi hamda mavjud muammolar tizimli tarzda guruhlashtirildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar O'zbekiston soliq tizimining raqamlashtirilishi jarayonini chuqur tahlil qilish, mavjud holatni aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari esa raqamli soliq boshqaruvi sohasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yutuqlar tahlili. Raqamlashtirish jarayonida sodir bo'lgan muhim yutuqlar bir qator ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topmoqda. Avvalo, Soliq qo'mitasi tomonidan joriy etilgan elektron hujjat aylanishi, elektron imzo, onlayn kassa apparatlari va xavf-tahlili tizimlari soliq ma'muriyati jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, elektron xizmatlar orqali chegara-oraliq mablag'tushumlarining ham ortib borayotgani yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, 2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida chet el kompaniyalari tomonidan O'zbekistonda elektron xizmatlar orqali to'langan soliqlar jami 124,8 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu yil boshidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44 %ga ko'pdir. Bu holat raqamli soliq ma'muriyati vositalarining samaradorligi va aniqligi oshayotganini ko'rsatadi.

Axborot infratuzilmasi yangilandi: Soliq qo'mitasi ma'lumotlarni qayta ishlash markazi infratuzilmasini yangilab, axborot almashinuvi va tizim ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar haqida xabar berdi. Shu tarzda ma'lumotlar oqimining tezligi oshib, soliq organlari ichida va soliq to'lovchilar bilan aloqada xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotning raqamli komponenti kengayib borayotgani ham mazkur jarayon uchun ijobiy zamin yaratmoqda. Masalan, raqamli iqtisodiyot sohasida O'zbekistonda axborot va kommunikatsiya xizmatlari 2020–2022 yillarda 13.9 trln so'mdan 22.9 trln so'mga oshganligi qayd etilgan. Bu esa soliq ma'muriyati uchun raqamli transformatsiyalarga ehtiyojni va imkoniyatni yanada mustahkamlashiga dalildir.

Muammolar tahlili. Biroq, ushbu jarayon bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda va ular raqamlashtirishning to'liq samarali ishlashiga to'siq bo'lmoqda.

Raqamli savodxonlik. Fuqarolar (ayniqsa katta yoshdagilar va chekka hududlarda yashovchilar) elektron xizmatlardan foydalanishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu "ikkinchi darajali raqamli tafovut" deb ataladi va bu holat soliq to'lovchilarning elektron xizmatlarga o'z vaqtida va to'liq o'tay olmasligi bilan bog'liq. Adabiyotlarda raqamli savodxonlikning pastligi raqamli transformatsiyalar samaradorligini pasaytiruvchi muhim omil sifatida ko'riladi.

Tizimlararo integratsiya va axborot almashinuvi muammolari. Turli vazirlik va idoralar tomonidan mustaqil axborot tizimlari yaratilib, ular bir-biriga integratsiyalashmagan. Bu holat ma'lumotlar takrorlanib kiritilishi, ma'lumotlar sifati pasayishi va monitoring jarayonlarining sekinlashuvi bilan bog'liq. Mazkur holat raqamli tizimlarni joriy etishdagi institutsional muammolarga ishora qiladi. Moliyaviy va kadrlar resurslari cheklanganligi. Raqamlashtirish jarayonida sarmoyalar, texnik va inson resurslari yetishmasligi muammolari ko'rib chiqiladi. Masalan, ICT sektorida yuqori ixtisoslashgan mutaxassislar yetishmasligi, kadrlar aylanishi masalasi muhim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliq tizimining raqamlashtirilishi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda: xizmat ko'rsatish tezligi oshdi, ma'muriy yuk kamaymoqda, shaffoflik darajasi oshmoqda. Masalan, chet el kompaniyalarining elektron xizmatlar orqali to'lashi mumkin bo'lgan soliqlar hajmining 44 %ga o'sishi — raqamli soliq boshqaruvining samaradorligiga ishora qiluvchi aniq raqamdir.

Biroq natijalar shuni ham ko'rsatmoqdaki, bu jarayon hali mukammal emas: hududlararo raqamli tafovut, raqamli savodxonlik pastligi, tizimlararo integratsiya va xavfsizlik jihatlari gipotetik yutuqlarning real holatda to'liq amalga oshmasligiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, raqamlashtirishning to'liq natijasi (masalan, soliq tushumlari, yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish) hali diagnostika darajasida va keyingi bosqichlarni talab qiladi.

Misol uchun, raqamli iqtisodiyotning butun iqtisodiyotdagi hissasi 2020 yilda 1.99% bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda 2.77 % gacha oshgani qayd etilgan. Bu raqam raqamli transformatsiyaning iqtisodiy muhitda o'z izini qoldirayotganini ko'rsatadi, lekin soliq ma'muriyatidagi raqamlashtirish bilan bog'liq to'liq statistik ma'lumotlar cheklanganligi tufayli, to'liq baholash qiyin.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida soliq ma'muriyati samaradorligi ortdi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro aloqalar soddalashti, shaffoflik va nazorat mexanizmlari kuchaydi. Ayniqsa, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat kassa apparatlari, elektron hisobot topshirish tizimlari, soliq xavfini tahlil qilish platformalari singari raqamli yechimlar soliq yig'imlarining o'sishiga va yashirin iqtisodiy faoliyatning qisqarishiga xizmat qilmoqda.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilning dastlabki to'qqiz oyi davomida elektron xizmatlar orqali to'plangan soliqlar hajmi 124,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44 %ga oshgan. Bu ko'rsatkich raqamli boshqaruv tizimlarining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot ulushining 2020–2022 yillar oralig'ida 1,99 % dan 2,77 % gacha o'sishi mamlakat iqtisodiy tizimida raqamlashtirishning real ta'sirini ko'rsatadi.

Biroq, olib borilgan tahlillar shuni ham aniqladiki, mavjud yutuqlarga qaramay, soliq tizimining raqamlashtirilishi jarayonida bir qator strukturaviy, institutsional va inson omiliga oid muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, hududlararo raqamli tafovut, raqamli savodxonlikning past darajasi, tizimlararo integratsiyaning sustligi va kiberxavfsizlik sohasidagi zaifliklar jarayonning to'liq samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu holat shuni anglatadiki, raqamlashtirish texnologik yangilik sifatida emas, balki kompleks iqtisodiy islohotlar tizimi sifatida qaralishi zarur. Raqamli soliq tizimini rivojlantirish faqat texnik vositalarni joriy etish bilangina cheklanmay, balki inson kapitalini oshirish, institutsional muvofiqlashtirish va normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni ham talab qiladi.

Takliflar: 1)Hududlararo raqamli infratuzilmani kengaytirish.

Internet tarmog'ining qamrovi va tezligini oshirish, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda soliq to'lovchilarning onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik asosida "raqamli infratuzilma loyihalari"ni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2)Raqamli savodxonlikni oshirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash.

Soliq organlari xodimlari, kichik biznes vakillari va fuqarolar uchun muntazam raqamli moliya va soliq madaniyati bo'yicha o'quv dasturlari tashkil etilishi kerak. Bu raqamli xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshiradi va foydalanuvchi xatoliklarini kamaytiradi.

3)Axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish.

Soliq qo'mitasi, bojxona, moliya, statistika, va boshqa idoralar o'rtasida yagona ma'lumotlar bazasi va real vaqt rejimida ishlovchi integratsion platforma joriy etilishi lozim. Bu ma'lumotlar takrorlanishini bartaraf etadi va nazorat tizimini mustahkamlaydi.

4)Soliq ma'muriyatini raqamli indikatorlar asosida baholash.

Har yili soliq tizimining raqamlashtirish darajasini aniqlovchi “Raqamli soliq indeks” joriy etilishi, bu orqali islohotlarning samaradorligi miqdoriy ko’rsatkichlar orqali baholanishi maqsadga muvofiqdir.

5) Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

OECD, Jahon banki va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda raqamli soliq ma’muriyatini rivojlantirish bo’yicha texnik yordam va tajriba almashish dasturlarini kengaytirish lozim. Bu xalqaro standartlarga mos soliq ma’lumotlari almashinuvi va audit tizimlarini shakllantirishga yordam beradi.

6) Raqamli islohotlarni monitoring va tahlil qilish tizimini yaratish.

Har chorakda soliq tizimi raqamlashtirish bo’yicha natijalar, muammolar va yutuqlarni baholovchi mustaqil tahliliy platforma tashkil etilishi zarur. Bu tizim natijalarning shaffofligini ta’minlaydi va strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo’ladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdug’aniyev, Sh. (2023). *O‘zbekiston soliq tizimining raqamli islohotlari: holat va istiqbollari*. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, №1, 45–53-betlar.

Farmon (2019) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatini takomillashtirish va soliq intizomini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5719-son Farmoni*. 29-may.

G’ulomov, S. & Niyozov, B. (2022). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’muriyatining transformatsiyasi*. – Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti axborotnomasi, №4, 67–74-betlar.

Karimov, I. (2023). *Soliq ma’muriyatini avtomatlashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari*. – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy jurnali, №2, 56–64-betlar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (2022) “Soliq ma’muriyati faoliyatini raqamlashtirish bo’yicha 2022–2025-yillar strategiyasi”. Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (STQ). (2025) Raqamli xizmatlar portali faoliyati bo’yicha 2024-yil yakuniy hisobot. Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024) Raqamli iqtisodiyot va elektron xizmatlar rivoji bo’yicha yillik statistik ma’lumotlar to’plami. Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2019) “Elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish konsepsiyasi” to’g’risidagi 710-son qarori. 30-avgust.

Qaror (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-6079-sonli qarori. 5-oktabr.

Qonun (2021) “Axborot xavfsizligi to’g’risida”gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 15-iyul.

Raxmatov, A. (2021). *Elektron hukumat tizimining soliq boshqaruviga ta’siri*. – “Public Administration and Digital Transformation” jurnali, №3, 22–30-betlar.

Safarova, D. (2020). *O‘zbekiston soliq tizimining modernizatsiyasi: muammolar va yechimlar*. – “Iqtisodiyot va boshqaruv” jurnali, №6, 14–22-betlar.